

Meaning, Style And Emotional-Expressive Functions Of Synonyms In Artistic Text

(On The Example Of Chingiz Aitmatov's Work "A Century-Old Day")

Bazarova Dildor Bakhronovna

University of Economics and Pedagogy

Associate Professor of the Department of "Uzbek Language and Literature"

Nazarova Mukhlisa Murodilla qizi

Student of the University of Economics and Pedagogy

Abstract

The article analyzes the phenomenon of synonymy as an important linguistic device that ensures semantic precision, stylistic appropriateness, and emotional-expressive impact within the framework of a literary text. The research findings demonstrate that synonyms function as an active semantic mechanism in expressing the author's artistic intention and philosophical perspectives.

Keywords: synonymy, semantic nuance, stylistic layer, emotional-expressiveness, literary text, lexical system, language units.

Annotatsiya

Maqolada sinonimiya hodisasi badiiy matn doirasida ma'no aniqligi, uslubiy moslik va hissiy-ifodaviy ta'sirni ta'minlovchi muhim til vositasi sifatida tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari sinonimlarning muallif badiiy niyati va falsafiy qarashlarini ifodalashda faol semantik mexanizm vazifasini bajarishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: sinonimiya, ma'no nozikligi, uslubiy qatlam, hissiy-ifodaviylik, badiiy matn, leksik tizim, til birliklari.

Tilshunoslikda sinonimiya — umumiy ma'no maydoniga mansub, mazmuni jihatdan yaqin bo'lgan, biroq qo'llanish sohasi, uslubiy talqini, semantik hajmi hamda ekspressiv-emotsional bo'yoqlari bilan bir-biridan farqlanadigan leksik birliklarning o'zaro munosabatidir. Sinonimlar tilning ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi, nutqning badiiy, ilmiy va publitsistik rang-barangligini ta'minlaydi, fikrni nozik ma'no ottenkalari orqali yanada teran ifodalash imkonini yaratadi.

Biz quyida Chingiz Aytmatovning "Arsiga tatigulik kun" asari misolida o'rganib chiqdik.

O'zbek tilidagi **inson, odam, shaxs, kishi, kimsa, odamzod, banda** kabi birliklar bir konsept — "odam mavjudoti" ni anglatadi, har biri turli kontekst va uslubiy qatlamda turlicha funksiyani bajaradi. Bu holat sinonimiyani mazmun jihatdan birlashuvchi, ammo uslubiy va ekspressiv jihatdan tabaqalanib boruvchi murakkab sistemaviy hodisa sifatida namoyon etadi.

1. Semantik yaqinlik va qamrovning turlicha bo'lishi. Har bir sinonim umumiy ma'no yadrosiga ega bo'lsa-da, ma'no qamrovi, mavhumlik darajasi va konnotativ jihati turlicha bo'ladi.

"Inson o'y-tafakkuri zamindan o'sib, koinotgacha ulanib ketgan" (4-b) — *inson* so'zi falsafiy, umumlashtiruvchi ma'noda.

"Bandalaringni senga aytari aniq: rahm qil, madad ber, panohingda saqla!" (407-b) — *banda* diniy-emotsional bo'yoqqa ega. Shu bois sinonimlar orasidagi bunday ongli tanlov nafaqat ma'no nozikliklarini aniqlashtiradi, balki matnning umumiy semantik qatlamini boyitib, muallif qarashlarining falsafiy yoki ruhiy yo'nalishini aniqroq namoyon etadi. Natijada leksik birliklarning mavhumlik darajasi va konnotativ rang-barangligi o'quvchi tafakkuriga chuqurroq ta'sir ko'rsatib, nutqning badiiy va hissiy samaradorligini oshiradi.

2. Uslubiy tabaqalanishning namoyon bo'lishi. Sinonimlar barcha uslublarda bir xil darajada qo'llanavermaydi. Har bir leksema matnning janri, maqsadi, auditoriyasi va muallif uslubiga ko'ra tanlanadi.

"Har bir shaxs taqdir taqozosi qilgan ismi bilan yuradi" (375-b) — rasmiy/ilmiy ohang.

“Odam bolasi bir-biri bilan marosa-yu madora qilib yashashi mumkin” (4-b) — soʻzlashuv uslubi.

“Bunday savolga kimsalarning javobi hamisha tayyor boʻladi” (3-b) — kinoyaviy. Keltirilgan misollarda *shaxs*, *odam bolasi* va *kimsalar* leksemalarining bir-biriga yaqin maʼnoda qoʻllanishiga qaramay, ularning har biri muayyan nutq vaziyatiga mos uslubiy yukni oʻzida mujassam etadi. Aynan shu uslubiy tabaqalanish orqali matn rasmiylik, soddalik yoki kinoyaviy ohang kasb etib, muallif fikrining ifoda yoʻsini va oʻquvchiga boʻlgan taʼsir kuchi aniqlanadi.

3. Ekspressiv-emotsional rang-baranglik. Sinonimlar oʻzaro betaraf emas, baʼzilari kuchli hissiy boʻyoq, baholash ohangi yoki obrazli mazmun bilan ajralib turadi. **Kishi** — betaraf, betaraf, **odamzod** — obrazli, umumlashtiruvchi. **banda** — diniy, hissiy, boʻysunuvni bildiradi.

“Endi har bir kishi mana shu adolat etagidan mahkam tutishi kerak” (381-b) — betaraf, **“Odamzodning urf-odatlariga qarshi bormanglar...” (399-b)** — obrazli, umumlashtirilgan. Shu jihatdan emotsional boʻyoqi kuchli sinonimlarning tanlanishi matnda faqat maʼlumot berish bilan cheklanmay, baholash va taʼsirlantirish vazifasini ham bajaradi. Natijada betaraf leksemalar fikrni xolis ifodalashga xizmat qilsa, obrazli va hissiy birliklar mazmunni umumlashtirib, oʻquvchining axloqiy va hissiy ongiga chuqurroq singib boradi.

Sinonimlar oʻzaro mutlaq betaraf boʻlmay, emotsional-ekspressiv rangiga koʻra farqlanadi va matnda faqat axborot yetkazish emas, balki baholash hamda taʼsirlantirish vazifasini bajaradi. Ushbu nazariy xulosa *“yurak”, “qalb”, “dil”, “siyna”, “botin”, “ich”* kabi birliklardan tashkil topgan sinonimik qatorda yaqqol namoyon boʻladi. Mazkur qator yagona konsept — **insonning ichki olami, ruhiy kechinmalari va his-tuygʻularini** ifodalasa-da, har bir leksema mazmun chuqurligi, obrazlilik darajasi va uslubiy rangiga koʻra farqlanadi.

Yurak. Toʻgʻridan-toʻgʻri fiziologik mazmunni anglatadi, baʼzan hissiy kuchni ham bildiradi. **Sogʻinchdan tutday toʻkilgan yurak bunga ham bardosh berolmadi (160-b)** — fiziologik obraz orqali hissiy ogʻriq oshirilgan.

Qalb. Koʻproq badiiy va falsafiy uslubga xos. **Ona qalbi shuni istardi (174-b)** — samimiylik va ruhiy sezgirlik kuchayadi.

Dil. Ichki his-tuygʻu, mayl, shijoat manbayi. **Edigey bu yumushlarni hamisha jon dili bilan bajarardi (301-b)** — ishga mehr, samimiyat ifodasi.

Siyna. Soʻzlashuv va badiiy uslubda qoʻllanadi; koʻproq tashqi koʻrinish–ichki boʻshliq tasvirini beradi. **Kampirlarning qup-quruq siynasidek shalverab tushgan edi (335-b)** — tananing jismoniy ojizligi obrazli ifodalangan.

Botin. Tarixiy, falsafiy semantikaga ega; ruhiy ichki qatlamni bildiradi. **Qalban mehnatkash insongina oʻzini shunday botiniy murakkab savollarga tutadiki...!” (3-b).**

Ich. Eng kuchli, toʻgʻridan-toʻgʻri, salbiy yoki keskin hissiy boʻyoqqa ega. **“Bunisi qanaqa boʻldi deb ichida gʻijinib borardi” (359-b)** — salbiy ichki kayfiyat ifodasi. Bu qator ichki olamning turli koʻrinishlarini badiiy va ilmiy jihatdan juda nozik farqlash imkonini beradi.

Xuddi shunday semantik noziklik vaqt davomiyligini bildiruvchi sinonimlarda ham kuzatiladi. Vaqt davomiyligini bildiruvchi sinonimik qatorda **doim, doimo, hamisha, hamma vaqt, nuqul, har doim, birday, mudom, yalang** leksemalari oʻzaro yaqin semantik maydonga mansub boʻlsa-da, ularning nutqiy vazifasi va uslubiy boʻyoqi bir xil emas. Ushbu birliklar davomiylik tushunchasini ifodalash jarayonida takroriylik darajasi, baholovchi munosabat hamda emotsional rang-baranglik bilan farqlanadi.

Doim leksemasi uzoq vaqt davom etuvchi, kundalik odat tusiga kirgan holatlarni ifodalashga xizmat qiladi. **“Bolasi tushmagur doim gʻalati gaplarni gapirib yuradi” (24-b)** misolida mazkur birlik hodisaning uzluksiz va takrorlanib turishini tabiiy, nisbatan betaraf ohangda ifodalaydi.

Doimo soʻzi **doim**ga nisbatan kuchliroq urgʻuga ega boʻlib, qatʼiy va barqaror takroriylikni bildiradi. **“U qoronor boʻronni doimo sidqidildan parvarish qiladi” (39-b)** jumlasida davomiylikka subyektiv munosabat va taʼkid ohangi qoʻshilib, harakatning barqarorligi kuchaytirilgan.

Hamisha leksemasi ko'proq betaraf, ayrim hollarda ilmiy yoki rasmiy nutqqa yaqin kontekstlarda qo'llanadi. **"Men uni hamisha o'zim bilan birga olib yurardim" (47-b)** misolida davomiylik xolis va muvozanatli tarzda ifodalanib, hissiy bo'yoq ikkinchi planga o'tadi.

Hamma vaqt birikmasi vaqtning uzluksizligi va istisnosiz davom etishini anglatadi. **"Bizdan yaxshi ishlaydigan yigitlar hamma vaqt topiladi" (71-b)** jumlasida mazkur birlik umumlashma va qat'iylikni kuchaytirib, hodisaning doimiy qonuniyati sifatida qabul qilinishini ta'minlaydi.

Nuqul leksemasi davomiylikni ko'proq salbiy baholovchi munosabat bilan ifodalaydi. **"Simyog'ochlar ham nuqul g'uvillab turardi" (7-b)** misolida takroriylik keraksiz, bezovta qiluvchi holat sifatida idrok etilib, emotsional salbiylik yaqqol seziladi.

Har doim birikmasi so'zlashuv nutqiga xos bo'lib, o'rtacha darajadagi davomiylikni bildiradi. **"Qanday bo'lmasin, haqiqat har doim bo'ladi" (366-b)** jumlasida mazkur birlik umumiy haqiqatni ifodalashda mantiqiy urg'u vazifasini bajaradi.

Birday leksemasi intensiv, tinimsiz davomiylikni anglatib, ko'pincha salbiy yoki kuchaytirilgan bo'yoqda namoyon bo'ladi. **"Yiroqni birday yorutuvchi chiroqlari ko'zini qamashtirib qo'ydi" (10-b)** misolida uzluksizlik ortiqcha ta'sir kuchi bilan uyg'unlashadi.

Mudom badiiy uslubga xos bo'lib, davomiylikni nisbatan yumshoq, poetik ohangda ifodalaydi. **"Mudom birga o'ynab-kulishar, goh bu uyga, goh narigi uyga chopqillashar edilar" (300-b)** jumlasida harakatning uzluksizligi tabiiy va jonli tasvir orqali berilgan.

Yalang leksemasi mazkur sinonimik qatorda bevosita vaqt ma'nosini emas, balki holatning bo'shligi va ochiqqligini ifodalash orqali davomiylikni bilvosita aks ettiradi. **"Dunyoda faqat ikki tabiiy kuch mavjud edi: osmon va yalang cho'l" (372-b)** misolida vaqt va makon uzviy bog'liq holda umumlashtirilgan tasvir yaratiladi. Shunday qilib, mazkur sinonimik qator birliklari nutqda vaqt davomiyligini ifodalashda o'ziga xos semantik, uslubiy va emotsional tafovutlarni yuzaga chiqarib, badiiy matnning ma'no qatlamini boyitadi.

Xulosa qilib aytganda, sinonimiya til tizimining faqat leksik boyligini emas, balki uning semantik chuqurligi, uslubiy moslashuvchanligi va ekspressiv imkoniyatlarini namoyon etuvchi murakkab hodisadir. Chingiz Aytmatovning **"Asrga tatigulik kun"** asari misolida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, sinonimlar nutqda oddiy almashtirish vositasi emas, balki muallifning badiiy niyati, baholovchi munosabati va falsafiy qarashlarini ifodalovchi muhim semantik mexanizm vazifasini bajaradi. Inson, odam, shaxs, kishi, banda singari birliklar orqali ijtimoiy, diniy va axloqiy qatlamlar yoritilsa, yurak, qalb, dil, botin, ich kabi sinonimik qatorlar inson ruhiyatining turli darajalari va hissiy intensivligini ochib beradi. Xuddi shuningdek, vaqt davomiyligini bildiruvchi sinonimlar harakat va holatning uzluksizligini nafaqat miqdoriy, balki baholovchi va emotsional jihatdan ham farqlash imkonini yaratadi. Demak, sinonimlar o'zaro ma'nodosh bo'lsa-da, ularning har biri matnda alohida semantik yuk, uslubiy vazifa va ta'sir kuchiga ega bo'lib, badiiy asarning ichki mazmun qatlamini boyitadi. Bu holat sinonimiyani tilning dinamik va ko'p qirrali tizimiy birligi sifatida baholash zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Adabiyotlar ro'yxati

N.Mahmudov va b. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati: / N.Mahmudov tahriri ostida. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – 512 b.

Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиёв А. ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. I қисм. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – Б.115.

A.Hojiyev. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati: – T.: O'qituvchi nashriyoti, 1974. – 308 b.

Ch. Aytmatov. Asrga tatigulik kun. Roman. Yoshlar nashriyoti uyi. T.: – 2018. 424-b.

D.B.Bazarova. Til tizimidagi so'z variantlari va ularning kommunikativ roli. Innovation in the modern education system.2024.

S Hayitova, D Bazarova. 5-sinf "adabiyot" darsligidagi maqollar mavzusini o'rganish. Hamkor konferensiyalar, 2024.

B.D Baxronovna. On taye artistic skills of Erkin Vahidov (as an example of the "Dream World" collection). Ethiopian International Journal of Multidisciplinary..., 2024.

- Bazarova D. (2024). Ta'lim rus tilida olib boriladigan guruhlarda O'zbek tilida so'z tarkibill mavzusini o'rgatish tajribasidan. O'zbek tilining xorijda o'qitilishi: Ta'lim nazariyasi va amaliyoti, 1(01), 88-90.
- Аликулова, М Шерали кизи. Сравнение Онегина и Обломова: два пути «лишних людей». Multidisciplinary and Multidimensional Journal, (2024). 3(11), 6-12.
- Аликулова, М. (2024). Лингвистические особенности повестей А.И. Куприна 1890-1910 годах. Hamkor konferensiyalar, 1(2), 502-504.
- Аликулова, М. (2023). Использование эпитетов в произведениях А.И. Куприна. Scientific progress, 4(5), 387-390.
- Aliqulova, M. (2024). Анализ изучения языка и стиля произведений А.И Куприна. O'zbek tilining xorijda o'qitilishi: ta'lim nazariyasi va amaliyoti, 1(01), 82-87.
- Аликулова, М. Ш. (2023). Лексико-семантические особенности рассказов Александра Куприна. Центральноазиатский журнал образования и инноваций, 2(12 Part 2), 172-174.
- Makhmudova M. (2024). The use of paronymous words in speech. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research. 2024/12/11.
- М Аликулова. Морфологические варианты в русском языке. Theory and analytical aspects of recent research. International scientific-online conference. part 33: january 9th, 2025.
- M.Maxmudova. Boshlang'ich ta'limda matn yaratish ko'nikmasini rivojlantirishning ahamiyati. Innovation in the modern education system 5 (47), 367-371.
- Bazarova D, Ro'ziyeva O. The use of synonyms in Said Ahmad's work "Silence". Educator Insights: Journal of Teaching Theory and ..., 2025.